SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son S/8
2023

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V3SI8Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ S/8 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

**М У Н Д А Р И Ж А**

## 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Намазова Умида Нормуродовна*
ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ (1929-1945 ГОДЫ)........ 10-15

*Эрназаров Туйгун Раджабович*
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ МОМЕНТЫ И ДОСТИЖЕНИЯ........ 16-21

*Хужаниязов Уктам Ешбаевич*
“ҚОРАҚАЛПОҚФИЛЬМ” СТУДИЯСИ ҲУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА ТАРИХИЙ МАВЗУЛАР ТАЛҚИНИ ........ 22-27

*Шаимкулов Азамат Холмуратович*
ҚАЙТА ҚУРИШ ДАВРИ МАТБУОТИДА ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАР ТАЛҚИНИ ........ 28-38

*Муродов Ҳалим Салимович*
ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР........ 39-46

*Юлдашев Саиданварбек Бахромжон ўғли*
ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ– ҚОРАХОНИЙЛАР ТОМОНИДАН ЗАБТ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН ........ 47-51

*Shonazarova Nargiza*
TOSHKENT SHAHRIDA “OBOD MAHALLA” DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR ........ 52-57

*Axmadova Nafisa Axmad qizi*
O‘ZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI ........ 58-64

*Qodirova Ra’no Mamirjonovna*
O‘ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING O‘QITILISHI ........ 65-70

*Yunusxo‘jayev Habibulla Zafar g‘o‘li*
SHARQDA KUCHLI IJTIMOIY HIMOYA TIZIMI TARIXI ........ 71-75

*Нарбеков Абдикамил*
НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ........ 76-80

*Alimova G‘unchaxon Baxadirovna*
JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA ........ 81-85

*Jumanazarova Fotima*
XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI ........ 68-93

## 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Ziyodilloev Khushnud Rahimboevich*
PORTFOLIO OPTIMIZATION OF COMMERCIAL BANK CREDITS: A LITERATURE REVIEW ........ 94-100

*Hamrayev Amirzoda*
ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI KOʻRSATUVCHI TASHKILOTLAR KAPITAL STRUKTURASI SAMARADORLIGI TAHLILI ....................101-109

*Хайтбоева Нигора Бакмататовна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА МАРКЕТИНГ СТРАТЕГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАЛАРИ ....................110-119

*Xalilov Qahramon Qurbonboyevich*
MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIK KLASTERINI SHAKLLANTIRISHNING DESTINATSION MODELI....................120-132

*Махмудов Турсунпулат Давронович*
ИНВЕСТИЦИЯ МАНБАЛАРИНИНГ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИ ....................133-144

*Ishchanova Salomat*
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING FAOLIYATINING OʻRNI....................145-150

*Мўйдинова Зилола Вохид қизи*
ЧЕГАРА БОЖХОНА ПОСТЛАРИ ФАОЛИЯТИДА "АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ЙЎЛОВЧИ ҲАРАКАТИ" МОБИЛ ИЛОВАСИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ....................151-158

*Samandarov Oʻgabek, Ismoilov Shohjahon*
TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING OʻZIGA XOS JIHATLARI ....................159-164

## *09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*

*Саидова Камола Усканбаевна*
ФЕНОМЕН СВОБОДЫ ДЛЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА: КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ ....................165-173

*Omonturdiyev Orzu Gʻafforovich*
INSONNING MA'NAVIY MOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI ....................174-179

*Очилова Гузаль Араловна*
ЮКСАК МАЪНАВИЯТ–МАНФААТЛАР БИРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ....................180-185

*Nurmatova Umida Jalolidinovna*
MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TA'LIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI....................186-192

*Vafayeva Dilafruz Artikovna*
AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIY TA'LIMOTIDA MA'NAVIY BARKAMOLLIK....................193-198

*Karimov Zafarbek Ataboyevich*
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARINING SOGʻLOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI....................199-202

*Bozorova Roʻzigul Sharofovna*
MEHRSIZLIK HODISASINI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR ....................203-212

*Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna*
DINIY MANBALARDA IJTIMOIY HAMKORLIK OʻOYALARI ....................213-218

*Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna*
TASAVVUF FALSAFASIDA GOʻZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI ....................219-224

*Dehqonov Behzod Baxtityorovich*
YANGI O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YETTI PIRNING BAG‘RIKENGLIK G‘OYALARINI O‘RNI VA AHAMIYATI ........................................225-230

*Abdullayeva Firuza Sharipovna*
NASIRIDDIN TUSIYNING IDROK NAZARIYASI VA KOMILLIK FALSAFASI ........................231-236

*Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich*
SHIHOBUDDIN UMAR SUXRAVARDIYNING “AVORIF UL -MAORIF” ASARI VA UNDA ILGARI SURILGAN G‘OYALAR ........................................237-243

*Ибрагимов Солижон Эргашович*
АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА “ОММАВИЙ МАДАНИЯТ” ТАҲДИДИ........................................244-251

## ***10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***

*Qodirova Mukaddas Tog‘ayena*
BIZNES DISKURSINING MURAKKAB LINGVISTIK TABIATI........................................252-257

*Abdullayev Ikramjon Xashimdjanovich*
DIFFERENT APPROACHES TO THE QUANTITATIVE-STATISTICAL CHARACTERISTICS OF PARTS OF SPEECH IN THE ENGLISH LANGUAGE ........................................258-265

*Hamroyeva Sharifa Shukur qizi*
TARJIMADA MILLIY SO‘ZLARNING BERILISHI (OYBEKNING “NAVOIY” ROMANI INGLIZCHA TARJIMASI MISOLIDA) ........................................266-271

*Olimova Gulfiza Muradullayevna*
BADIIY SAN’AT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QO‘LLANILISHI ....................272-281

*Айниддинов Иқрориддин Шарифович*
АДАБИЙ МАНБАЛАРДА АШРАФ САМАРҚАНДИЙНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ ........................................282-287

*Turaeva Dilfuza Daminovna*
O‘ZBEK TILIDA OBRAZLI SO‘ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI ........................288-295

*Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna*
LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA SIFATIDA NAMOYON BO‘LISHI........................................296-305

*Ashurova Maftuna Asqar qizi, Yuldoshev Rustam Dilshod ugli*
LINGUOCULTURAL COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES ........................................306-311

*Isroilova Manzura Jamolovna*
FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARDA KOMPARATIV FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KOMMUNIKATIV TA`SIRI XUSUSIDA ........................................312-317

*Шамақсудова Саодат Хидоятовна*
МАССМЕДИА АСПЕКТИНИНГ МЕДИАМАТН ШАКЛИГА КЕЛИШИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР........................................318-324

*Шатова Ирина Юрьевна*
ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЛЕКСИКИ ПО РОДУ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ........................................325-330

*Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna*
FRAZEOLOGIK DERIVATLARNI KONTEKSTLARDA ISHLATILISHINING KOGNITIV ASOSLARI ........................................331-335

*Alimjanova Shohsanam Azamat qizi*
KOʻP MAʻNOLI IBORALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI ....................336-340

*Турниязова Шахноза Нигматовна*
МАТНДАГИ БОҒЛАНИШЛИЛИК ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР ....................341-347

*Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich*
INGLIZ ADABIYOTI TUSHUNCHALARINING XILMA -XILLIGI ....................348-352

*Aminova Dilnoza Xikmatullayevna*
THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE ORIGIN OF MILITARY TERMINOLOGY ....................353-358

**12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи*
ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ ....................359-365

*Mamataliyev Toʻlqin Xushmamat oʻgʻli*
OʻZBEKISTONDA MASOFAVIY TAʼLIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI ....................366-378

**13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Saidov Jur'at Sodirovich*
MAKTABGACHA TAʼLIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TARBIYA BERISHNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI ....................379-384

*Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,*
TEXNIK OLIY OʻQUV YURTLARIDA OOʻZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USUL VA METODLARI ....................385-390

*Таджиходжаева Эльвира Рашидовна*
ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ИГРОПЕДАГОГИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ ....................391-396

*Тўрахонова Барно Турсунбой кизи*
БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ ....................397-406

*Ashurova Sitora Erkinovna*
USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION ....................407-412

*Каримжонова Мунаввар Ибрагимовна*
ХИЗМАТ ИТЛАРИНИ МАХСУС ЙЎНАЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА УНГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ (Божхона қўмитасининг Миллий кинология маркази мисолида)....................413-421

*Xamirayev Rustam Abdirazakovich*
VOLEYBOLCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH ....................422-426

*Хашимова Масуда Камилжановна*
КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУК ....................427-435

*Бердикулова Насиба Эркинжоновна*
СОДЕРЖАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ ....................436-442

*Saidnazarova Gulshan Bolta qizi*
AL-BUXORIYNING MA’NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O‘RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA ........................................ 443-448

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ S/8 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*12.00.00–Юридик фанлар*

**Mamataliyev To'lqin Xushmamat o'g'li**
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: tolqinmamataliyev@gmail.com

## O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda masofaviy ta'lim uchun huquqiy asoslarning paydo bo'lishi va o'rnatilishi, ahamiyati va dolzarbligi, masofaviy ta'limni tartibga soluvchi huquqiy bazaga bo'lgan ehtiyoj, O'zbekistondagi aniq huquqiy bazalarni ishlab chiqishda mamlakatning masofaviy ta'lim amaliyotini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, transchegaraviy ta'lim almashinuvini osonlashtirishtirish, akkreditatsiya, intellektual mulk huquqlari, talabalarning maxfiyligi, ma'lumotlar himoyasi va sifat kafolati kabi masalalar huquqiy kafolatlarni talab qiladigan masalalar haqida fikr yuritiladi.
**Kalit so'zlar:** masofaviy ta'lim, ta'lim olish huquqi, Pre-COVID-19 period, During the COVID-19 period, post-COVID-19 period.

**Mamataliev To'lqin Xushmamat o'g'li**
Tashkent State Law University
Independent Researcher

## ESTABLISHMENT OF LEGAL BASIS OF DISTANCE EDUCATION IN UZBEKISTAN

**Abstract.** In this article, the emergence and establishment of legal frameworks for distance education in Uzbekistan, their importance and relevance, the need for a legal framework regulating distance education, the harmonization of the country's distance education practice with international standards in the development of specific legal frameworks in Uzbekistan, the facilitation of cross-border educational exchange, accreditation, issues such as intellectual property rights, student privacy, data protection, and quality assurance are considered and require legal safeguards.
**Key words:** distance education, right to education, Pre-COVID-19 period, During the COVID-19 period, post-COVID-19 period.

**Маматалиев Тулкин Хушмамат угли**
Ташкентский государственный
юридический университет
независимый исследователь

## СОЗДАНИЕ ПРАВОВОЙ ОСНОВЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются возникновение и становление законодательных основ дистанционного образования в Узбекистане, их значение и актуальность, необходимость создания нормативно-правовой базы, регулирующей дистанционное образование, гармонизация практики дистанционного образования страны с международными стандартами при разработке конкретной законодательной базы в Узбекистане. В Узбекистане содействие трансграничному образовательному обмену, аккредитация, такие вопросы, как права интеллектуальной собственности, конфиденциальность студентов, защита данных и обеспечение качества, считаются требующими правовых гарантий.

**Ключевые слова:** дистанционное образование, право на образование, период до COVID-19, период после COVID-19, период после COVID-19.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N52

Masofaviy ta'lim butun dunyo bo'ylab tobora keng tarqalgan ta'lim shakliga aylandi, bu texnologiya taraqqiyoti va moslashuvchan ta'lim imkoniyatlariga bo'lgan ehtiyoj tufayli. Mamlakatlar o'z ta'lim tizimlarini raqamli davr talablariga moslashtirishga harakat qilar ekan, masofaviy ta'lim uchun huquqiy asoslarning paydo bo'lishi va o'rnatilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Markaziy Osiyoda ta'limni rivojlantirishga intilayotgan O'zbekiston ham bu tendensiyadan mustasno emas.

Masofaviy ta'limni tartibga soluvchi huquqiy bazaga bo'lgan ehtiyoj ushbu ta'lim shakli taqdim etadigan imkoniyatlardan kelib chiqadi. An'anaviy oliy ta'lim muassasalaridan farqli o'laroq, masofaviy ta'lim geografik chegaralardan oshib, joylashuvi yoki jismoniy cheklovlaridan qat'i nazar, ta'lim olish imkoniyatini beradi.

Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan strategik vazifalardan biridir [1].

Masofaviy ta'limga oid asosiy normativ-huquqiy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasining 20.04.2021-yildagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida" gi O'RQ-682-son Qonun 6-moddasida belgilangan normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasi asosida bir qator tizmlashtirib olish lozim.

Masofaviy ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarga O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi [2, O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni [2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni 2-ilovasining 212-213-bandlari [4], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022-yildagi "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida" 80-son qarori [5], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.10.2022-yildagi 559-son qarori va shu kabi bir qancha normativ-huquqiy hujjatlarni keltirib utish mumkin [6].

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 50-moddasida har kim ta'lim olish huquqiga ega ekanligi, davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi mustahkamlanib qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 50-moddasida har bir shaxsning bilim olish huquqi kafolatlangan. Bu huquqni konstitutsiyada mustahkamlab, davlatni inklyuziv va samarali ta'lim tizimini yaratish va qo'llab-quvvatlash majburiyatini yuklaydigan huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Barcha insonlar uchun sifatli ta'limni ta'minlash, turli ta'lim landshaftini ilgari surish va fuqarolarning ehtiyojlarini qondirish uchun ta'lim tizimini doimiy ravishda rivojlantirish majburiyatini aks ettiradi.

O'zbekistonda masofaviy ta'limning huquqiy asoslarining shakllantirilishi mamlakatda ushbu ta'lim yondashuvining o'zgaruvchan salohiyati e'tirof etilganidan dalolat beradi. Hukumat me'yoriy-huquqiy bazani yaratish orqali sifat standartlarini ta'minlash, pedagogik yaxlitlikni saqlash, talabalar huquqlarini himoya qilish va masofaviy ta'lim amaliyotini keng joriy etishni rag'batlantirishni maqsad qilgan. Ushbu huquqiy asoslar, shuningdek, ta'lim

muassasalari, sanoat manfaatdor tomonlari va siyosatchilar oʻrtasidagi hamkorlikni osonlashtiradi, masofaviy taʼlim tashabbuslarini va hamkorlik muhitini ragʻbatlantiradi.

Oʻzbekistonda masofaviy taʼlimning huquqiy asoslarini yaratishning dolzarbligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi global yutuqlar taʼlim tizimlariga milliy chegaralardan chiqib ketish imkonini bermoqda, bu esa xalqaro hamkorlik va sherikliklarning paydo boʻlishiga olib keladi. Oʻzbekistondagi aniq huquqiy bazalarni ishlab chiqish mamlakatning masofaviy taʼlim amaliyotini xalqaro standartlar bilan uygʻunlashtiradi, transchegaraviy taʼlim almashinuvini osonlashtiradi va Oʻzbekistonni raqamli taʼlim markazi sifatida keng eʼtirof etilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, masofaviy taʼlimning huquqiy asoslarini yaratish ushbu taʼlim shaklida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan muammolarni hal qiladi. Akkreditatsiya, intellektual mulk huquqlari, talabalarning maxfiyligi, maʼlumotlar himoyasi va sifat kafolati kabi masalalar huquqiy kafolatlarni talab qiladigan muhim masalalardir. Texnologiya taraqqiyoti va ijtimoiy ehtiyojlar oʻzgarib borar ekan, qonunchilik bazasi taʼlim amaliyotlari dolzarb, adolatli va inklyuziv boʻlib qolishini taʼminlab, zamonga moslashishi kerak.

Masofaviy taʼlimning huquqiy asoslari masofaviy taʼlim muassasalari va pedagoglarning aniq qonuniy huquq va majburiyatlarga ega boʻlishini taʼminlaydi. Bu masofaviy taʼlim dasturlari adolatli va oshkora amalga oshirilishini taʼminlashga, talabalarni har qanday mumkin boʻlgan huquqbuzarlik va buzilishlardan himoya qilishga yordam beradi.

Fikrimizcha, Oʻzbekistonda masofaviy taʼlimning huquqiy asoslarini shakllantirish bosqichlarini quyidagi uch davrga boʻlish mumkin:

1.) KOVID-19 dan oldingi (Pre-COVID-19 period), 2.) KOVID -19 davrida (During the COVID-19 period) va 3.) KOVID-19 dan keyingi davr (post-COVID-19 period).

1. Oʻzbekistonda KOVID-19 dan oldingi davr (Pre-COVID-19 period) masofaviy taʼlimning huquqiy asoslarini shakllantirishning dastlabki nazariy bosqichlarini qamrab oladi. Bu davrda internetning joriy etilishi va texnologiyalarning takomillashtirilishi masofaviy taʼlimning rivojlanishida muhim rol oʻynadi. Masofaviy taʼlimning ilmiy nazariy asoslarning gʻoya sifatida shakllanishi ham bu davrning muhim jihati boʻldi. Oʻzbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrda imzolangan «Elektron hukumat toʻgʻrisida» gi qonuni elektron taʼlim, shu jumladan masofaviy taʼlim rivojida turtki boʻldi [7]. Oliy taʼlim muassasasini boshqarishni avtomatlashtirish, oʻquv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan —2017 — 2021-yillarda Oliy taʼlim tizimini kompleks rivojlantirish dasturining eng asosiy yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy taʼlim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish toʻgʻrisida" gi PF-5789-son Farmonida rahbar va pedagog kadrlarda Internet jahon axborot tarmogʻi, multimedia tizimlari va masofadan oʻqitish usullaridan foydalangan holda, ilgʻor pedagogika, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni egallash va ularni oʻquv jarayoniga faol tatbiq etish koʻnikmalarini rivojlantirish, pensiya yoshidagi, uch yoshga toʻlmagan farzandi bor ayollar hamda nogironligi boʻlgan rahbar va pedagog kadrlarning qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida oʻqishini masofaviy shaklda tashkil etish vazifalari qoʻyildi [8].

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 8-noyabrdagi "Davlat boshqaruvida ilgʻor davlat menejmenti va "aqlli" boshqaruv prinsiplarini bosqichma-bosqich

joriy etishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida" gi 959-son qarorida masofaviy taʼlim texnologiyalarini joriy qilish boʻyicha bir qancha vazifalar belgilangan [9].

2. KOVID-19 (During the COVID-19 period) davrida davlat taʼlim muassasalarining yopilishi va masofaviy taʼlimga oʻtishi munosabati bilan masofaviy taʼlim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni tezlashtirdi. Bu davr Oʻzbekistonda masofaviy taʼlimning huquqiy bazasiga ega boʻlishi muhimligini taʼkidladi va hukumat texnologiyadagi oʻzgarishlarni aks ettirish hamda masofaviy taʼlim dasturlari yuqori sifatli va talabalar ehtiyojlarini qondirish uchun qonunchilik bazasini yangiladi. Barcha turdagi taʼlim xizmatlari koronavirus pandemiyasidan eng koʻp zarar koʻrgan tarmoqlar hisoblanadi. Hukumat masofaviy taʼlim dasturlari standartlarini, jumladan, oʻquv materiallari sifati, oʻqituvchilarning malakasi va talabalarga koʻrsatilayotgan yordamga qoʻyiladigan talablarni belgilab berdi.

Masofaviy taʼlim uchun 16-martdan boshlab normativ, uslubiy va dasturiy asoslar yaratildi. 2020-yilning 1-aprelidan barcha oliy taʼlim muassasalarida oʻqish masofaviy taʼlim shaklida yoʻlga qoʻyildi. Respublika maxsus komissiyasi yigʻilishining 11-son bayoni bilan tegishli normativ-metodik hujjatlarga Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi tomonidan mustaqil oʻzgartirish kiritishiga istisno tariqasida rozilik berildi.

Maxsus komissiya qarorlaridan kelib chiqib, Oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarining shaxsiy ish rejasida bajarilmay qolgan oʻquv yuklamalari oʻquv, uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlarini qoʻshimcha bajarish hisobiga qoplanadi. Bakalavr va magistratura xususiyatidan kelib chiqqan holda oʻquv rejalaridagi fanlarni modul asosida oʻqitishlariga ruxsat berildi. Har bir oliy taʼlim muassasasida (fakultetda) masofaviy taʼlimni tashkil etishni muvofiqlashtirish maqsadida kafedra mudiri — oʻquv-uslubiy boshqarma vakili — AKT mutaxassisidan iborat guruhlar shakllantirildi. Professor-oʻqituvchilar masofadan (uylaridan turib) oʻquv resurslarini ishlab chiqishlari, tegishli fanlar boʻyicha elektron resurslarni AKT mutaxassislariga taqdim etishlari va dasturiy platformalarga joylashtirib borish sharoiti yaratildi. Bu davrda masofaviy taʼlim uchun AKT dasturiy platformalari ishlab chiqildi. Tegishli fanlari boʻyicha yuqori malakali professor-oʻqituvchilar maʼruzalarini video formatda talabalar foydalanishlari uchun internet tarmogʻida (TAS-IX) tube.edu.uz videoportali ishga tushirildi.

Elektron maʼlumotlar kiritiladigan platformaga (Moodle) fanlar boʻyicha oʻquv resurslari joylashtirildi. Katta yutuqlardan biri bakalavr va magistratura oʻquv rejalari asosida joriy semestrdagi oʻqitilayotgan 6102 ta fandan masofaviy taʼlim resurslari yaratildi va har bir oliy taʼlim muassasasining masofaviy oʻqitish platformalariga joylashtirildi.

Masofaviy taʼlimning informatsion resurs bazasi shakllantirildi. Oliy taʼlim muassasalari oʻrtasida resurslardan hamkorlikda foydalanish imkoniyatini berish, yaʼni talabaga boshqa oliy taʼlim muassasasi salohiyatli professor-oʻqituvchisining oʻquv materiallaridan foydalanish imkoniyatini yaratish maqsadida barcha oliy taʼlim muassasalarining masofaviy oʻqitish platformalari vazirlikning dist.edu.uz yagona portaliga birlashtirildi. Ushbu tizimda 113 ta oliy taʼlim muassasasining taʼlim resurslaridan foydalanish uchun 301 546 nafar kunduzgi va kechki taʼlim talabalari va 24 578 nafar professor-oʻqituvchi roʻyxatdan oʻtdi. Bitiruvchi kurs talabalari bitiruv oldi amaliyotlarini kurs loyihasi (ishi) sifatida (mavzular, uslubi, shakli, tartibi taʼlim yoʻnalishi xususiyatiga muvofiq oliy taʼlim muassasasi tomonidan belgilanadi) amalga oshirilishi taʼminlanadi. Shuningdek, mazkur davrda magistratura mutaxassisliklari bitiruvchi kurs talabalari uchun yakuniy davlat attestatsiyasi onlayn himoyalar orqali tashkil etildi.

Talabalarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish maqsadida vazirlik portali tarkibida zamonaviy va klassik adabiyotlar joylashtirilgan audiokitoblar audiobook.edu.uz elektron kutubxonasi tashkil etildi.

Masofaviy ta’lim jarayonlarini tizimli nazoratini tashkil etish, bunda oʻqituvchi – kafedra mudiri – dekan – prorektorlardan iborat vertikal tizim faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Masofaviy ta’lim jarayoniga jalb etiladigan professor-oʻqituvchilar, shu jumladan oʻrindoshlik asosida ishlayotganlar va tegishli lavozimdagi ishchi-xodimlarni mehnat qonunchiligiga asosan ularning roziligiga koʻra belgilangan tartibda ta’tildan chaqirtirib olindi hamda masofaviy ish rejimiga oʻtkazildi. Mehnat ta’tilining bir qismini olgan professor-oʻqituvchilar ta’tilining foydalanilmagan qolgan qismi odatda beriladigan yoz oylariga rejalashtirildi. Professor-oʻqituvchilar va ishchi-xodimlarni ijtimoiy himoya qilish hamda ularning huquqlari buzilishiga zinhor yoʻl qoʻymaslik choralari koʻrildi. Yozgi ta’til davrida ishda boʻladigan professor-oʻqituvchilar masofaviy ta’lim bilan qamrab olish imkoniyati mavjud boʻlmagan talabalarni alohida grafik asosida oʻqitish va fanlarni oʻzlashtirish jarayonlari hamda yangi oʻquv yiliga tayyorgarlik koʻrish jarayonlarini amalga oshiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi "2017 — 2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha harakatlar strategiyasini «ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida PF-5953-son Farmoni bilan 2020/2021 oʻquv yilidan boshlab Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti va Toshkent davlat pedagogika universitetida tajriba tariqasida bosqichma-bosqich masofaviy oʻqitish shakli joriy etish belgilab qoʻyildi [10].

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 1-yanvarga qadar tajriba natijalarini inobatga olgan holda oliy ta’lim tizimiga masofaviy oʻqitish shaklini joriy etish toʻgʻrisidagi takliflarni oʻqitishning ushbu shaklini amalga kiritishning oliy ta’lim muassasalari va ta’lim yoʻnalishlari kesimidagi grafigi bilan birgalikda kiritish belgilab oʻtilgan. Farmon bilan tegishli yoʻnalishlar boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi ichida va uning tashqarisida masofaviy oʻqitish uchun ta’lim modullari va dasturlarini oʻz ichiga olgan hamda “Elektron parlament” tizimi bilan integratsiyalashgan “onlayn” tizim yaratish vazifasi qoʻyilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi “Toshkent davlat yuridik universiteti magistraturasiga oʻqishga qabul qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi 513-son qarorining 1-ilovasi bilan Toshkent davlat yuridik universiteti magistraturasiga kunduzgi, sirtqi, kechki va masofaviy ta’lim shakllari boʻyicha oʻqishga qabul qilish tartibi toʻgʻrisidagi nizom tasdiqlangan [11].

Bu vaqtga qadar oliy ta’lim tizimida yuqori malakali kadrlarni ishdan ajralmagan holda tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish hamda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan toʻliq va samarali foydalanish yoʻlga qoʻyilmagan. Jumladan, respublika oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’lim shakli joriy etilmagan edi.

“Ta’lim toʻgʻrisida”gi qonunning 15-moddasida qonunchilik doirasida tan olingan va belgilangan ta’limning turli shakllari koʻrsatilib oʻtilgan. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim (sirtqi, kechki, masofaviy): ta’limning ushbu shakllari talabalarga oʻqishlarini samarali mehnat yoki boshqa shu kabilar bilan birlashtirish imkonini beradi. “Ta’lim toʻgʻrisida”gi qonunning 16-moddasida koʻrsatilgan masofaviy ta’lim shaklining huquqiy talqini masofaviy

ta’lim belgilangan qonunchilik doirasida qanday belgilanishi va tartibga solinishi haqida kengroq tushuncha beradi. Unda ta’lim muassasalari, talabalar va masofaviy ta’lim bilan shug‘ullanuvchi boshqa manfaatdor shaxslarning huquq va majburiyatlari aniqlashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuniga muvofiq masofaviy ta’limni tashkil etish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi [3].

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 16-moddasida ko‘rsatilgan masofaviy ta’lim shaklining huquqiy talqini amaldagi qonunchilik doirasida masofaviy ta’lim qanday belgilanishi va tartibga solinishi haqida har tomonlama tushuncha beradi. Qonunga ko‘ra, masofaviy ta’limni tashkil etishning aniq tartiblari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Vazirlar Mahkamasi siyosat va qonunlarni amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan hukumatning eng yuqori ijro etuvchi hokimiyatini anglatadi. Mazkur qoida Vazirlar Mahkamasiga masofaviy ta’limni tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha qoidalar, ko‘rsatmalar va tartiblarni belgilash huquqini beradi. Unda aniqlik kiritilishicha, masofaviy ta’lim qanday olib borilishi, jumladan, ma’muriy, texnik va pedagogik jihatlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan aniq me’yoriy hujjatlar orqali belgilab beriladi. Ushbu normaning maqsadi masofaviy ta’limning standartlashtirilgan va tartibga solinadigan tizimini ta’minlash, ta’lim muassasalari, talabalar va boshqa manfaatdor tomonlarning huquqlarini himoya qilishdir. Vazirlar mahkamasi masofaviy ta’limning milliy ta’lim maqsadlari va standartlariga mos kelishini , ta’lim sifati va izchilligini ta’minlaydi.

Pandemiya sharoitida talabalarni masofadan o‘qitishda qator noqulayliklar yuzaga keldi, jumladan, oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini zudlik bilan joriy etish, mavjud elektron ta’lim platformalarini yaratish yoki takomillashtirish bo‘yicha ishlarni kuchaytirishga majbur bo‘ldilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi PF-6079-son Farmonida axborot texnologiyalari sohasida ta’lim berish va malaka oshirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab o‘tilgan [12].

Aholining barcha qatlamlarida axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o‘qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish raqamli ko‘nikmalarni oshirish ko‘rsatilib o‘tilgan.

3. O‘zbekistonda KOVID-19 dan keyingi davr (post-COVID-19 period) masofaviy ta’limning huquqiy asoslarini shakllantirishning modernizatsiya bosqichini qamrab oladi. Pandemiyadan so‘ng masofaviy ta’limning huquqiy asoslarini texnologiyalardagi o‘zgarishlarni aks ettirishi hamda masofaviy ta’lim dasturlari yuqori sifatli va talabalar ehtiyojlarini qondirishini ta’minlash uchun modernizatsiya qilishni davom ettirildi.

Masofaviy ta’lim dasturlari bo‘yicha yangi me’yoriy hujjatlar va yo‘riqnomalarni, jumladan, o‘quv materiallari sifati, o‘qituvchilarning malakasi va talabalarga ko‘rsatilayotgan yordamga qo‘yiladigan talablarni belgilandi. Shuningdek, masofaviy ta’limda texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqdi va ta’lim muassasalariga masofaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda yordam ko‘rsatdi. Bundan tashqari, hukumat an’anaviy sinfda ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lmagan shaxslarning ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash uchun oliy ta’limda masofaviy ta’limdan foydalanishni kengaytirishni davom ettirdi. Yangi masofaviy ta’lim muassasalarini tashkil etdi va masofaviy ta’lim dasturlari taklif qilinadigan sohalar doirasini kengaytirildi.

Shuningdek, masofaviy taʼlim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun taʼlim muassasalariga moliyaviy koʻmak koʻrsatdi, pedagog kadrlarni masofaviy taʼlim sifatini oshirish uchun malaka oshirish va qoʻllab-quvvatlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi toʻgʻrisidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida" gi 80-son qarorida professional, oliy, oliy taʼlimdan keyingi taʼlim tashkilotlari uchun masofaviy shakldа taʼlim xizmatlarini koʻrsatish boʻyicha litsenziya talablari va shartlari koʻrsatilib oʻtilgan [13]. Unda asosan 7 turdagi litsenziya talablari va shartlari belgilangan:Oʻquv va oʻquv-metodik adabiyotlar hamda axborot-resurs bazasi bilan taʼminlanganligi;

1. Taʼlim tashkilotining bino yoki xonalariga qoʻyiladigan talablar;
2. Taʼlim oluvchilarning maksimal soni;
3. Taʼlim oluvchilar soniga toʻgʻri keladigan oʻqituvchilar shtat birliklari;
4. Oʻqituvchi va xodimlarning ilmiy salohiyati darajasi va qoʻnimsizligining oldi olinganligi;
5. Axborot texnologiyalari bilan taʼminlanganlik darajasi;
6. Onlayn va masofaviy taʼlim platformasiga qoʻyiladigan talablar.

Mazkur normativ-huquqiy hujjat talablaridan kelib chiqib oʻtkazilgan ijtimoiy soʻrovnomada “Siz tahsil olayotgan guruh nechta talabadan iborat?” savoliga ishtirokchilarning 923 nafari (36,3%) guruh 25-30 tagacha talabadan iborat, deb javob bergan boʻlsa, 956 nafar (38%) ishtirokchi bir guruhda 30 va 40 dan ortiq talaba tahsil olishini taʼkidlagan. Koʻrinib turibdiki, aksariyat guruhlar tarkibi 25 nafardan ortiq talabani qamrab olmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-apreldagi "Samarqand davlat tibbiyot universitetini tashkil etish va sohada kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida" gi PQ-188-son qarorida Universitet va uning tarkibiy tuzilmalari professor-oʻqituvchilari va ilmiy tadqiqotchilari uchun masofaviy taʼlim, oʻquv kurslari, malaka oshirish va seminarlar koʻlamini kengaytirish belgilangan [14].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni 2-ilovasining 213-bandi ijrosini taʼminlash [15], shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan sohada samarali foydalanish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.10.2022-yildagi “Oliy taʼlim tashkilotlarida masofaviy taʼlim shaklini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi 559-son qarori tasdiqlandi.

I. Qarorni ishlab chiqish zarurati:

1) masofaviy taʼlim “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonunda ishlab chiqarishdan ajralmagan holda taʼlim olish shakllaridan biri sifatida belgilangan (15−16-moddalar) boʻlib, biroq uni tashkil etish tartibi qabul qilinmagan edi;

Qaror chiqqungacha oliygohlarda kechki (30 ta OTMda 39 496 nafar talaba), sirtqi (86 ta OTMda 295 765 nafar talaba) va kunduzgi (barcha 176 ta OTMda 728 406 nafar talaba) taʼlim shakllari mavjud edi.

2) Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 15.06.2022-yildagi F−60-son farmoyishi bilan 12 ta oliy taʼlim muassasasi va 3 ta oliy taʼlim muassasalarining filiallarida masofaviy taʼlim qabul parametrlari va yoʻnalishlari 3 410 ta qabul kvotasi tasdiqlandi.

Shuningdek, Hukumat qarori bilan tashkil etilgan, AKT sohasida kadrlar tayyorlovchi nodavlat “IT-Park Universitet” raqamli universitetida taʼlim masofaviy shaklda olib borilishi belgilandi. (qabul rejasi 1000 ta) [16];

3) Bunda AQSH, Germaniya, Fransiya, Finlyandiya, Norvegiya, Polsha, Koreya, Xitoy, Singapur, Rossiya, Belorussiya kabi davlatlarda masofaviy ta’lim shakli tajribalari o‘rganildi.

II. Qarorning asosiy mazmuni:

Masofaviy ta’lim shaklini joriy etish davlat oliygohlariga 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab, nodavlat oliygohlarga 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab ruxsat berildi.

Masofaviy ta’lim shakli joriy etilmaydigan bakalavriat va magistratura yo‘nalishlari Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan belgilanadi hamda har yili 1-aprelga qadar e’lon qilinadi.

Nodavlat oliygohlarda masofaviy shaklda tashkil etiladigan bakalavriat va magistratura yo‘nalishlari litsenziyada qayd etiladi.

Davlat oliygohlariga masofaviy shaklda o‘qitish uchun talabalarni qabul qilish DTM o‘tkazadigan test sinovlari orqali amalga oshiriladi.

Masofaviy ta’lim shakli asosida kadrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha tegishli ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisligi mavjud bo‘lgan oliygohlarda yo‘lga qo‘yiladi. Bunda qabul kvotasi:

a) bir bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga 300 nafar talabadan;

b) bir magistratura mutaxassisligiga 30 nafar talabadan oshirilmaydi.

Mazkur talab AKT yo‘nalishlariga nisbatan tatbiq etilmaydi hamda talabalar sonini aniqlashda xorijiy davlat fuqarolari hisobga olinmaydi.

Masofaviy ta’lim bo‘yicha qabul parametrlari va to‘lov-kontrakt qiymati:

a) davlat oliygohlarida – Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilgan holda bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik (idora) tomonidan;

b) moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliygohlarida – tegishli oliygohning Kuzatuv kengashi tomonidan;

c) nodavlat oliygohlarda – nodavlat oliy ta’lim tashkiloti muassisi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.06.2022-yildagi PQ–279-son qaroriga muvofiq, 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab davlat oliygohlariga o‘qishga qabul qilish kvotalari faqat davlat granti bo‘yicha tasdiqlanadi.

Masofaviy ta’lim to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Masofaviy ta’lim bo‘yicha o‘qish davomiyligi tegishli bakalavriat va magistratura yo‘nalishlari bo‘yicha kunduzgi ta’lim shakli davomiyligi muddatidan kam bo‘lishi mumkin emas.

Masofaviy ta’limni tashkil etish uchun oliygohlarda, jumladan quyidagilarning bo‘lishi talab etiladi:

a) masofaviy ta’limni boshqarish bo‘yicha dasturiy ta’minot;

Dasturiy ta’minot orqali dars mashg‘ulotlari o‘tkaziladi, talabalar bilimini baholanadi va o‘quv jarayoni nazorat qilinadi.

b) o‘quv yili uchun mo‘ljallangan o‘quv metodik materiallar;

c) ta’lim tashkilotiga mulkiy yoki kamida 5 yil muddatga tuzilgan ijara shartnomasi asosida tegishli bo‘lgan, mamlakat hududida joylashgan server qurilmasi.

Quyidagi hollarda talaba oliygohga shaxsan tashrif buyuradi (xorijiy davlat fuqarosi bundan mustasno):

a) oʻquv jarayoni boshlanishidan avval – masofaviy ta’limni boshqarish boʻyicha dasturiy ta’minotda roʻyxatdan oʻtish uchun;

b) har semestr yakunida – yakuniy nazorat topshirish uchun.

Shuningdek, yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy va magistrlik ishi himoyasi oliygohda an’anaviy tarzda topshiriladi.

Masofaviy ta’limda bir oʻqituvchiga toʻgʻri keladigan talabalar soni nisbatining cheklangan normativi 1:50 nisbatda belgilanadi.

Bu nisbat kunduzgi va kechki ta’lim shakllarida – 1:16, sirtqida – 1:20 etib belgilangan va oliygohlarga nisbatni 50 foizgacha oʻzgartirish huquqi berilgan.

Davlat komissiyasi bayoni bilan 2023/2024-oʻquv yilida respublika oliy ta’lim muassasalari bakalavriatining masofaviy ta’lim shakli boʻyicha oʻqishga qabul qilish parametrlarining ta’lim yoʻnalishlari boʻyicha 2825 ta kvota ajratildi.Natijasida fuqarolarda ishdan ajralmagan holda oliy ma’lumot olish hamda xorijiy davlat fuqarolari uchun ta’lim eksportini oshirish imkoniyatlari yanada kengaydi. Shuningdek, oliygohlar oʻquv jarayonini zamonaviy AKT asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Masofaviy ta’lim” shaklini rivojlantirish, respublika va global ta’limda axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, axborot-ta’lim muhitini takomillashtirish bilan uzviy bogʻliqdir [17].

Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq masofaviy ta’lim quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi:

- ishtirokchilarning interfaolligi;
- talabalarning identifikatsiya qilinishi;
- yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qoʻllashning pedagogik maqsadga muvofiqligi;
- ta’lim berishning ochiqligi va moslashuvchanligi.

Masofaviy ta’lim berishga moʻljallangan oʻquv reja va dasturlarda koʻrsatilgan fanlar va amaliyotlarni toʻliq oʻzlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasini muvaffaqiyatli topshirgan bitiruvchilarga tegishli akademik daraja va belgilangan namunadagi ta’lim toʻgʻrisidagi hujjat beriladi.Ta’lim tashkilotlaridagi masofaviy ta’lim boʻyicha oʻquv jarayoni monitoring qilib boriladi. Oʻquv jarayonining monitoringi dars mashgʻulotlari va nazorat tadbirlarini kuzatish va tahlil qilish, soʻrovnoma oʻtkazish, fokus-guruhlar tashkil etish, intervyu olish, natijalarni baholash va boshqa usullarda amalga oshirilishi mumkin. Monitoring natijalariga koʻra aniqlangan kamchiliklar oliy ta’lim tashkilotlari taqdimnoma asosida bartaraf etilishi majburiy hisoblanadi.

Shu asnoda ta’limga oid ishlab qiqilgan bir qancha hujjatlarda machofaviy ta’limga oid nomalar kiritildi. Jumladan, Vazirlar mahkamasining 2022-yil 7-oktyabrdagi “Oʻzbekiston respublikasi huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’limga qabul qilish va oʻqitish tartibini belgilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 143-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlari va tashkilotlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish olib boruvchi xodimlari malakasini oshirish tartibi toʻgʻrisidagi Nizomda yurisprudensiyaning boshqa bakalavriat ta’lim yoʻnalishlarida oʻquv jarayoni ta’limning kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy shakllarida tashkil etilishi koʻrsatilib oʻtilgan.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 18.08.2023-yildagi “Oʻzbekiston respublikasi ichki ishlar vazirligi akademiyasida xorijiy davlatlar ichki ishlar organlari

(politsiya) kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini joriy etish toʻgʻrisida"gi PQ-282-son qarorida xorijiy kadrlarni tayyorlash bakalavriat, magistratura va oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlari boʻyicha kunduzgi ta'lim shaklida, qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlari boʻyicha kunduzgi va masofaviy shakllarda amalga oshirilishi koʻrsatilib oʻtilgan [18].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 sentabrdagi "Oʻzbekiston — 2030" strategiyasi toʻgʻrisida" PF-158-son Farmoniga

1-ILOVAsida 14 ta hududiy professional tayyorgarlik markazlarini tashkil etish, malaka toifasiga ega boʻlgan pedagog kadrlar ulushini 50 foizga, masofaviy yoki aralash shakllarda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari ulushini 30 foizga yetkazish vazifasi qoʻyilgan [19]. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi "Oʻzbekiston – 2030 strategiyasini 2023-yilda sifatli va oʻz vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-300-son qarori 1a-ILOVAda Professional ta'lim tizimida masofaviy yoki aralash shakllarda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari ulushi 10 foizdan 15 foizga oshirish kursatilib oʻtilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.09.2023-yildagi "Aholining ijtimoiy ehtiyojmand ayrim toifalarini qoʻllab-quvvatlash va ularning bandligiga koʻmaklashish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi 450-son qarorida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning oliy ta'lim muassasalarida jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarga masofaviy ta'lim shaklida xorijiy tillarni oʻrgatish vazifasi belgilangan [20].

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, Oʻzbekistonda uzluksiz ta'limni rivojlantirishda masofaviy ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi. Masofaviy ta'limning huquqiy asoslarini shakllantirishning modernizatsiyani qamrab olgan uchinchi bosqichida (Post-COVID-19 period) mustahkam huquqiy bazani ishlab chiqish uchun qiyidagilar taklif etiladi:

1. Masofaviy ta'lim toʻgʻrisidagi maxsus konsepsiyani ishlab chiqish. Masofaviy ta'limni samarali tartibga solish uchun Oʻzbekistonga onlayn ta'limning oʻziga xos talablarini koʻzda tutuvchi yangi konsepsiyani qabul qilish zarur. Ushbu taklif qilingan qonun akkreditatsiya, sertifikatlashtirish, sifat kafolati, mualliflik huquqini himoya qilish, talabalar va oʻqituvchilar huquqlari kabi jihatlarni qamrab olishi kerak. Masofaviy ta'lim uchun alohida konsepsiyani ishlab chiqish orqali hukumat yuzaga kelayotgan muammolarni yaxshiroq hal qilishi va onlayn ta'lim platformalarining zarur standartlarga javob berishini ta'minlaydi.

2. Akkreditatsiya mexanizmlarini kuchaytirish. Masofaviy ta'limning muhim jihati ta'lim muassasalari, kurslar va dasturlarning muayyan sifat standartlariga javob berishini ta'minlashdir. Bunga koʻmaklashish uchun Oʻzbekistonda onlayn ta'lim provayderlarini nazorat qiluvchi mustahkam akkreditatsiya tizimini yaratish kerak. Taklif etilayotgan tizim kontent sifatini, oʻqitish usullarini, professor-oʻqituvchilar malakasini va talabalarni qoʻllab-quvvatlash xizmatlarini baholash boʻyicha jahon ilgʻor tajribalariga amal qilishi kerak.

3. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish. Davlat va xususiy sheriklikni ragʻbatlantirish masofaviy ta'limning qulayligi va sifatini oshirishi mumkin. Hukumat turli xil kurslarni taklif qilish uchun taniqli onlayn ta'lim platformalari, ta'lim texnologiyalari kompaniyalari va universitet tarmoqlari bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻyishi mumkin. Bunday hamkorlik masofaviy ta'lim platformalari uchun innovatsion ta'lim vositalari va resurslarini ishlab chiqishga ham hissa qoʻshadi.

4. Masofaviy malakalarni tan olish. Onlayn darajalar va sertifikatlarni tan olishni osonlashtirish uchun Oʻzbekiston masofaviy ta'lim orqali olingan malakalarni tasdiqlash uchun

rasmiy jarayonni oʻrnatishi kerak. Bu muassasalarni akkreditatsiya qilish va onlayn dasturlar orqali olingan darajalarni ish beruvchilar, boshqa taʼlim muassasalari va professional organlar tomonidan tan olinishini taʼminlashni oʻz ichiga oladi. Ushbu eʼtirof shubhalarni bartaraf qiladi va onlayn malakalarning obroʻsi va qiymatini oshiradi.

5. Maʼlumotlar maxfiyligi va himoyasini taʼminlash. Masofaviy taʼlimning onlayn xususiyatini hisobga olgan holda, maʼlumotlar maxfiyligi va himoyasiga ustuvor ahamiyat berilishi kerak. Talabalar, oʻqituvchilar va muassasalarning shaxsiy maʼlumotlarini himoya qilish uchun keng qamrovli maʼlumotlarni himoya qilish normalar ishlab chiqish juda muhimdir. Masofaviy taʼlim bilan shugʻullanuvchi barcha manfaatdor tomonlarning shaxsiy huquqlarini himoya qilish uchun maʼlumotlarni toʻplash, saqlash, almashish va rozilik boʻyicha aniq koʻrsatmalar belgilanishi kerak.

6. Yordam xizmatlarini taqdim etish. Masofaviy taʼlim samarali taʼlim tajribasini taʼminlash uchun tegishli yordam xizmatlarini talab qiladi. Takliflar onlayn yordam markazlari, akademik maslahatchilar, maslahat xizmatlari va elektron kutubxonalarni tashkil etish qoidalarini oʻz ichiga olishi kerak. Ushbu qoʻllab-quvvatlash xizmatlari talabalarga masofaviy taʼlim berish davomida zarur koʻrsatmalar beradi va ularning taʼlim muvaffaqiyatlariga hissa qoʻshadi.

7. Raqamli infratuzilmaga eʼtibor qaratish. Masofaviy taʼlimni rivojlantirish uchun Oʻzbekiston mustahkam raqamli infratuzilmaga, jumladan ishonchli internetga ulanishga, yuqori tezlikdagi tarmoqlarga va texnologik qurilmalardan arzon foydalanishga muhtoj. Takliflar mamlakatning raqamli infratuzilmasini yaxshilash va shahar va qishloqlardagi talabalar uchun onlayn taʼlimdan teng foydalanishni taʼminlash rejalarini koʻrsatishi kerak.

8. Uzluksiz monitoring va baholash. Masofaviy taʼlim dasturlari sifati, samaradorligi va taʼsirini baholash uchun muntazam monitoring va baholash mexanizmlarini joriy qilish kerak. Ushbu baholashlar takomillashtirilishi kerak boʻlgan yoʻnalishlarni aniqlashga yordam beradi va masofaviy taʼlim mamlakatning taʼlim maqsadlari va talablariga muvofiqligini taʼminlaydi.

Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali Oʻzbekistonda masofaviy taʼlimning keng qamrovli huquqiy asoslarini ishlab chiqishi mumkin. Bu nafaqat mamlakatda onlayn taʼlimning oʻsishini tartibga soladi va osonlashtiradi, balki Oʻzbekistonni oʻz fuqarolariga qulay va sifatli taʼlim berish boʻyicha yetakchiga aylantiradi.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi (president.uz)
2. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.Mazkur yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30- aprel kuni oʻtkazilgan Oʻzbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. https://lex.uz/uz/docs/6445145
3. Oʻzbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi OʻRQ-637-son Qonuni https://lex.uz/docs/-5013007Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son. lex.uz/docs/5841063
5. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022-yildagi “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi toʻgʻrisidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida”gi 80-son Qarori https://lex.uz/docs/5870213
6. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.10.2022-yildagi “Oliy taʼlim tashkilotlarida masofaviy taʼlim shaklini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 559-son qarori Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 04.10.2022-y., 09/22/559/0884-son
7. Oʻzbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrda imzolangan “Elektron hukumat toʻgʻrisidagi” qonuni, https://lex.uz/docs/2833860- Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2015-y., 49-son, 611-modda; Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
8. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi " 2017 — 2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha harakatlar strategiyasini «ilm, maʼrifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida PF-5953-son Farmoni
9. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 8.11.2019-yildagi "Davlat boshqaruvida ilgʻor davlat menejmenti va “aqlli” boshqaruv prinsiplarini bosqichma-bosqich joriy etishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi 959-son qarori https://lex.uz/docs Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 29.11.2019-y., 09/19/959/4085-son
10. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi " 2017 — 2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha harakatlar strategiyasini «ilm, maʼrifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida PF-5953-son Farmoni
11. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi "Toshkent davlat yuridik universiteti magistraturasiga oʻqishga qabul qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 513-son qarori https://lex.uz/docs/ 496981 Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 27.08.2020-y., 09/20/513/1224-son; Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 23.11.2021-y., 09/21/705/1082-son; 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son
12. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli Oʻzbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-6079-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5030957
13. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022-yildagi “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi toʻgʻrisidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida”gi 80-son Qarori https://lex.uz/docs/5870213
14. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-apreldagi "Samarqand davlat tibbiyot universitetini tashkil etish va sohada kadrlar tayyorlash tizimini yanada

takomillashtirish to'g'risida" gi PQ-188-son qarori 02.04.2022-y., 07/22/188/0259-son
15. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini /lex.uz/docs/ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son
16. Oʻzbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 01.06.2022-yildagi "IT-park university» raqamli universitetini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 297-son qarori https://lex.uz/uz/docs/6045196
17. "Ta'limni modernizatsiyalashda masofaviy ta'lim va oʻquv amaliy mashgʻulotlarni multimedialar asosida oʻtkazish texnologiyasi" Dekabr 2020 Texnika fanlari doktori, Palvan Kalandarov Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, https://www.researchgate.net/publication
18. "Oʻzbekiston respublikasi ichki ishlar vazirligi akademiyasida xorijiy davlatlar ichki ishlar organlari (politsiya) kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini joriy etish toʻgʻrisida"gi PQ-282-son Qarori. https://lex.uz/docs/-6577432
19. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi "Oʻzbekiston — 2030" strategiyasi toʻgʻrisidagi PF-158-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-6600413
20. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.09.2023-yildagi "Aholining ijtimoiy ehtiyojmand ayrim toifalarini qoʻllab-quvvatlash va ularning bandligiga koʻmaklashish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida" 450-son qarori. https://lex.uz/docs/-6595344

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V3SI8Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/8 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари"** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).